



LOGISTIKA KORXONALARIDA AYLANMA AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI MOLIVAVIY EKSPLUATATSION EHTIYOJLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a19

Maxmudov Samariddin Baxriddinovich -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot
markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada logistika korxonalarida aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali moliyaviy amaliyotlarni optimallashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda logistika sanoati rivojlanishi va uni kengaytirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqildi. Tadqiqotda mualliflar yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: aylanma aktivlar, logistika tizimini moliyalashtirish, tannarx xarajatlari, ishbilarmon faollik, sof moliyaviy natijalar, moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlar.

ПУТИ ОПТИМИЗАЦИИ ФИНАНСОВО-ОПЕРАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ОБОРОТНЫМИ СРЕДСТВАМИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Махмудов Самариддин Бахриддинович -
Докторант научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В статье разработаны пути оптимизации финансовой практики логистических предприятий за счет эффективного управления оборотными средствами. Также были разработаны подходы, направленные на развитие и расширение отрасли логистики в национальной экономике. Подходы и предложения авторов представлены в исследовании.

Ключевые слова: оборотные активы, финансирование логистической системы, затраты, деловая активность, чистые финансовые результаты, финансовые операционные потребности.

WAYS TO OPTIMIZE FINANCIAL AND OPERATIONAL NEEDS THROUGH EFFICIENT MANAGEMENT OF WORKING ASSETS OF LOGISTICS ENTERPRISES

Makhmudov Samariddin Baxriddinovich -
Research center «Scientific bases and issues
of development of Uzbekistan economy» under the TSUE

Abstract. The article develops ways to optimize the financial practices of logistics enterprises through effective management of working capital. Approaches aimed at developing and expanding the logistics industry in the national economy have also been developed. The approaches and proposals of the authors are presented in the study.

Keywords: current assets, logistics system financing, costs, business activity, net financial results, financial operating needs.

Kirish. Milliy iqtisodiyotda logistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari bo'yicha tanlanma kuzatuv va empirik tadqiqotlar tasdiqlaydiki, ishbilarmon faollik ko'rsatkichining ortib borish tendensiyasida aktivlarga investitsiyalangan kapital tarkibida qarz kapitali ulushining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu, o'z navbatida, aktivlarga avanslangan kapital, asosan, ichki moliyaviy salohiyatdan foydalanish hisobiga o'z va unga tenglashtirilgan moliyaviy resurslarga nisbatan tashqi moliyalashtirish manbalarini yuqori darajada jalb qilish hisobiga shakllantirilayotganligidan dalolat beradi.

Xususiy kapital tarkibida taqsimlanmagan foydaning yuqori o'sish dinamikasi xo'jalik faoliyati moliyaviy samaradorligining ortib borganligidan dalolat berib, ichki zaxira fondlarining to'planish

darajasiga ham ijobiy ta'sir etgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda moliyaviy resurslarni keng jalb qilishga imkoniyat beruvchi investitsion jozibadorlikning mustahkamlanishi uchun zamin yaratmoqda.

O'tish davri iqtisodiy shart-sharoitlariga muvofiq, moliyaviy bozorlardagi investitsion kreditlar hajmini oshirish, davlat siyosati sharoitida logistik korxonalar majburiyatlari tarkibidagi joriy majburiyatlar ulushining ortib borishi ular muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etuvchi omil bo'lishi mumkin. Milliy logistika tizimini modernizatsiya qilish, samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar ko'rsatish uchun transport xarajatlari va yetkazib berish muddatini

qisqartirishga yordam beradi. Bundan tashqari u ishlab, aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni kamaytirish orqali tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida logistik infratuzilma sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari moliyasini tashkil qilish an'anaviy ravishda o'zini o'zi moliyalashtirish, o'zini o'zi qoplash va to'liq xo'jalik mustaqilligi tamoyillariga asoslanaadi. Ushbu tamoyillar asosida aktivlarga avanslanadigan kapitalni shakllantirishda ichki moliyaviy salohiyatni to'liq mobilizatsiya qilish orqali xususiy kapitalni maksimallashtirish barqaror rivojlanishning bosh moliyaviy omili hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Logistika tizimidagi korxonalarining aylanma aktivlarini samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish yo'llari va ahamiyatining nazariy va amaliy jihatlari hamda ularni joriy etish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, logistika sohasining aylanma aktivlarini samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish bo'yicha ko'plab nazariy-ilmii ishlar qilingan va ta'riflar berilgan.

Xususan, iqtisodchi olim Muhammad Ayub logistika infratuzilmasini moliyalashtirish shakllariga ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish ta'sirini ekonometrik modellashtirganda, davlat qarzlari va budjet taqchilligi, foyda solig'i, soliqdan ozod qilingan obligatsiyalar, bank qarzlari, korporativ obligatsiyalar, davlat-xususiy sherikchilik va davlat korxonalariga ta'sir etuvchi omillar sifatida o'rganigan [1].

Baumol va J.Tobin logistika korxonalarining moliyaviy resurslarini boshqarish uchun logistika modellarini ishlab chiqqan [2]. Ushbu modellarning ustuvorligi moliyalashtirish usullari va modellarini qo'llashning yana bir sohasi haqida nafaqat materiallarni, balki logistika korxonalarining moliyaviy oqimlarini o'rganishga asos solgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Devid B. Grant va Chee Yew Wong logistika va ta'minot zanjiri, logistika sohasida aylanma mablag'larni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Olimlar o'z tadqiqotlarida, logistika korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, xavflarni kamaytirish va umumiy ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish uchun aylanma mablag'larini optimallashtirishi mumkinligini ta'kidlagan [3].

Iqtisodchi olim Tan Keah-Choon Tanning ilmiy ishlanmalarida logistika korxonalarining moliyaviy jihatlarini, jumladan, kompaniyalar operatsion samaradorlikni va umumiy moliyaviy ko'rsatkichlarni oshirish uchun aylanma mablag'larini samarali boshqarishi zarurligi ta'kidlab o'tilgan [4]. Olimning fikricha, moliyaviy boshqaruv amaliyoti va logistik ta'minot zanjiri samaradorligi o'rtasidagi

munosabatlar aylanma mablag'larga bo'lgan talablarni kamaytirish strategiyalarini aniqlashga va moliyaviy qarorlarning logistika operatsiyalariga ta'sirini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xorijlik olimlar Xiaowen Fu va Adolf KYning tadqiqotlari logistika amaliyotining moliyaviy jihatlari, kompaniyalar samaradorlik va moliyaviy ko'rsatkichlarni optimallashtirish uchun aylanma mablag'larining ekspluatatsion xarajatalarini kamaytirishga o'rganishga qaratilgan[5]. Tadqiqotchilar aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini o'rganishda moliyaviy qarorlarning ta'minot zanjiri faoliyatiga ta'sirini tushunishda hamda ta'minot zanjiridagi moliyaviy risklarni minimallashtirishda aylanma mablag'lar aylanuvchanligini oshirish zarurligini ta'lidlab o'tgan.

Yevropalik iqtisodchi olim Erik Xofmanning logistik ta'minot zanjiri boshqaruvi va moliyaviy amaliyotlar o'zaro munosabatlarini optimallashtirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotchi aylanma mablag'larni boshqarish, ta'minot zanjiri moliyasi, moliyaviy xavflarni kamaytirish va moliyaviy qarorlarning logistika va ta'minot zanjiri faoliyatiga ta'sirini ekonometrik modellar asosida ishlab chiqqan. Olimning tadqiqot natijalariga ko'ra, logistika korxonalarining aylanma mablag'larini optimallashtirishda moliyaviy likvidlik va operatsion samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash hamda inventarizatsiya, debitorlik va kreditorlik qarzlari darajasini boshqarish zarurligi ta'kidlangan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida logistika tizimidagi korxonalarining aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish rivojlantirishdagi ahamiyati va zarurati asoslandi.

Shuningdek, logistika tizimidagi korxonalarini moliyalashtirishning iqtisodiy tahlili usullaridan foydalangan holda emitatsion modellar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida barcha tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari qatorida logistik xizmatlar sohasida faoliyat olib boruvchi xo'jalik subyektlari faoliyatini tashkil qilishda aylanma aktivlarni samarali boshqarish rentabellik va ishbilarmon faollik ko'rsatkichlarini yuksaltirishning bosh omili hisoblanadi.

Aylanma aktivlarni boshqarish tizimi 3 umumiy pirovard natijalarga erishishga shart-sharoit yaratadi:

1. Aylanma mablag'larga bo'lgan moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish orqali moliyalashtirish manbalari tarkibidagi joriy majburiyatlarini minimal darajaga tushirish [7].

2. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligini oshirish orqali korxonalar ishbilarmon faollik ko'rsatkichlarini oshirish [8].

3. Aylanma mablag'larni samarali boshqarish orqali rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish uchun ichki operatsion faoliyat imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish [9].

Yuqoridagi holatlar aylanma mablag'lar tarkibidagi real ishlab chiqarish va muomala fondlarini optimallashtirish orqali aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ta'minlab, logistik xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar real bozor

qiymatini maksimallashtirishga shart-sharoit yaratadi.

Logistik korxonalarda aylanma aktivlarni boshqarish tizimida ma'lum tizimli muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan aylanma aktivlarni optimal boshqarish tizimi aylanma aktivlardan samarali foydalanish orqali ularda tashqi moliyalashtirish manbalariga bo'lgan moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni minimallashtirishga shart-sharoit yaratadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“ARROW GREEN” logistika MChJ moliyaviy natijalari shakllanish manbalarining tahlili, mln. so'm

Ko'rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Mahsulot realizatsiyasidan sof tushum	1027,0	3469,5	5111,5	10047,9	6609,5
Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	598,7	2019,1	3386,3	7438,3	6006,9
Yalpi foyda	428,3	1 450,5	1725,1	2609,7	602,6
Davr xarajatlari	810,4	1 142,9	2265,8	3059,6	1123,6
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0	5,9	1253,6	1222,2	5664,1
Asosiy faoliyat moliyaviy natijasi (Foyda (+); Zarar (-))	-382,1	313,5	712,9	772,3	5143,1
Moliyaviy faoliyat moliyaviy natijasi (Foyda (+); Zarar (-))	163,1	-127,4	125,6	8,8	28,3
Sof foyda	-267,9	-91,8	623,5	665,1	4749,3

Manba: yillik moliyaviy hisobotlar asosida shakllantirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tanlanma kuzatuv olib borilayotgan logistik kompaniyada 2017-2018-yillarda faoliyat sof moliyaviy natijasi zarar bilan yakunlangan. Bunga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan. Xususan, yuqori darajadagi tannarx (2018-yilda - 2019,1 mln. so'm) va davr xarajatlari natijasida (2017-yilda - 810,4 mln. so'm, 2018-yilda - 1142,9 mln. so'm) asosiy faoliyat zaif darajadagi moliyaviy natija bilan yakunlangan. 2019-yildan sof foydaning o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, tannarx va davr xarajatlarni samarali

boshqarish orqali asosiy faoliyat sof moliyaviy natijalarini oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan.

Garchi, sof foydaning 2021-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati ($4749,3/665,1 \cdot 100\%$) 714 foizga o'sishi kuzatilsa-da, ushbu o'sishning asosiy moliyaviy manbasi asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobiga to'g'ri kelgan.

Natijada operatsion faoliyatning sof moliyaviy natijasi hisoblangan yalpi foyda va sof foydaga nisbatan hisoblanadigan realizatsiyaning rentabelligi dinamikasida tizimli tavsifga ega bo'lmagan o'zgarish kuzatilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. “ARROW GREEN” logistika MChJ yalpi va sof foydaga nisbatan hisoblangan realizatsiyaning rentabellik koeffitsiyenti dinamikasi

Manba: yillik moliyaviy hisobotlar asosida shakllantirilgan.

Quyidagi 1-rasmdan ko'rish mumkinki, 2017-2018-yillarda yalpi foydaga nisbatan hisoblangan realizatsiyaning rentabelligi 0,42 ni tashkil qilgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrning ushbu yillarida asosiy faoliyat nisbatan samarali hisoblangan va yuqori davr, moliyaviy xarajatlar hamda soliq xarajatlari bosimi sharoitida faoliyat zarar bilan yakunlangan.

2019-2021-yillarda esa yuqori tannarx xarajatlari hisobiga yalpi foydaga nisbatan hisoblangan realizatsiyaning rentabelligi pasayish tendensiyasini namoyon qilib, 2021-yilda 0,09 ni tashkil etgan.

Lekin realizatsiyaning sof foydaga nisbatan rentabelligining 0,72 foizga yetishiga asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobiga shakllangan asosiy faoliyat moliyaviy natijasi ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

1. Logistik korxonalarda ishbilarmon faollik va xarajatlarni boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv mavjud bo'lmayotir.

2. Bu, o'z navbatida, moliyaviy natijalarning shakllanishi va uning taqsimlanish tizimida sof moliyaviy natijalar manbalarining keskin davriy o'zgarishlar tendensiyasini namoyon qilmoqda.


3. Logistik korxonalar xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy faoliyatining yuqori energiya va material sig'imi tannarx xarajatlari yuqori darajasining ta'minlanishiga ta'sir etmoqda.

4. Bu, o'z navbatida, tannarxning har bir elementini samarali boshqarish tizimi orqali ularni qisqartirish va natijada asosiy faoliyat yalpi foyda nominal qiymatini oshirish orqali rentabellik ko'rsatkichlarini barqarorlashtirishda katta imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

5. Tashqi bozorlardagi konyunkturaning keskin o'zgarishi, energiya resurslari narxlarining tebranishi logistik firmalar moliyaviy barqaror rivojlanishining xaotik tarzda kuzatilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, ishbilarmon faollik va moliyaviy natijalar samaradorligining keskin o'zgarish tahlikalarini vujudga keltirmoqda [10].

6. Tashqi va ichki tahlikalar sharoitida logistik kompaniyalar faoliyatini samarali boshqarish "risk-menejment" zamonaviy uslubiyotidan foydalanishni, ushbu uslubiyot orqali muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, rentabellik ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish hamda ular ishbilarmon faollik ko'rsatkichlarini mo'tadillashtirish, ichki moliyaviy salohiyatni to'liq ishga solish orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlarini to'g'ri baholashga shart-sharoit yaratadi [11].

7. Moliyaviy natijalar, xarajatlarni samarali boshqarish orqali rentabellikni maksimalashtirishga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali ta'minlanadi.




2-rasm. Logistika korxonalarida aylanma aktivlarni samarali boshqarish strategiyasi

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yuqoridagi 2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan yondashuv 3 asosiy turkumga ajratiladi. Bular: agressiv, konservativ va kompromiss yondashuvlar hisoblanib, ushbu yondashuvlar aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan qanday instrumentlardan foydalanish va natijada balans aktivlari va passivlarining tarkibiy tuzilmasi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Xususan, aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan agressiv yondashuvga muvofiq tashqi bozorlardagi logistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida bozordagi pozitsiyani mustahkamlashda joriy majburiyatlarning ortishi hisobiga aylanma mablag'larni shakllantirish va uning tarkibidagi debitorlik qarzlarning yuqori ulushi sharoitida sotish bozorlari segmentlarini kengaytirishga qaratiladi. Ushbu siyosat sharoitida korxonada aylanma aktivlari aylanuvchanligining sekinlashishi va likvidlikni yo'qotish riski ehtimolligi oshsa-da, xizmatlar hajmi va spektrini kengaytirish orqali asosiy faoliyat foydasini oshirishga qaratadi.

Konservativ yondashuvdagi aylanma aktivlarni boshqarish, bozordagi xizmatlar hajmi va spektrini kengaytirish mavjud ichki moliyaviy imkoniyat va samaradorlikning muvozanatli ko'rsatkichlariga asoslanadi. Bunday sharoitda bozordagi xizmatlar segmentini qamrab olish va pozitsiyani yanada mustahkamlash hisobiga samaradorlik va ishbilarmon faollikni yo'qotish riskiga moyillik past darajada qoladi. Har ikkala yondashuv sharoitida ham ma'lum imkoniyatlar va xatarlar muvozanatini ta'minlash maqsadida, fikrimizcha, kompromiss siyosatini yuritish istiqbolda barqaror biznes taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, aksariyat logistik korxonalar aylanma aktivlari tarkibida muomala fondlarining (debitorlik qarzlari va pul mablag'lari ekvivalentlari) yuqori ulushi aylanma aktivlar aylanuvchanligi orqali ifodalanadigan ishbilarmon faollik ko'rsatkichining past bo'lishiga ta'sir etmoqda.



3-rasm. "ARROW GREEN" logistik MChJda aylanma aktivlar tarkibi va dinamikasi

Manba: yillik moliyaviy hisobotlar asosida shakllantirilgan.

Bu, o'z navbatida, aylanma aktivlar rentabellik ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, "ARROW GREEN" logistik MChJda 2016-yilda jami aylanma aktivlar tarkibida debitorlik qarzlarning ulushi 98,7 %ni, 2021-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 58,7 foizni tashkil qilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, debitorlik qarzdorligining tahlil qilinayotgan davrdagi pasayishi muomala fondlarining ikkinchi elementi hisoblangan pul mablag'lariga to'g'ri kelmoqda. Natijada pul mablag'larining ulushi aylanma aktivlar tarkibida 2021-yilga kelib 24,5 foizni tashkil qilgan. Demak, aylanma aktivlar tarkibidagi ichki o'zgarishda debitorlik qarzlarning pul mablag'lariga ichki transformlashuv jarayonining kuzatilayotganligidan dalolat beradi. Operatsion faoliyatning barqarorligi moddiy negizini tashkil qiluvchi tovar-

moddiy zaxiralarning ulushi tahlil qilinayotgan davrda **max.7,1 foiz** (2020-yil), **min. 0,7 foiz** (2016-yil) diapazonida tebrangan.

Kelgusi davr xarajatlari xo'jalik subyekti tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan, lekin navbatdagi davrda tannarxga qo'shib hisoblanadigan xarajatlar hisoblanib, aylanma aktivlarning ushbu elementi 2021-yilga kelib 0,2 foizni tashkil qilmoqda.


Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

1. Logistik korxonalarda aylanma aktivlar tarkibida muomala fondlarining yuqori ulushi ularning ishbilarmon faollik ko'rsatkichlariga ta'sir etmoqda. Aylanma aktivlarining aylanish tezligi nisbatan sekinlashuvi, pirovardida, aylanma mablag'lar rentabellik darajasi past ko'rsatkichini ta'minlamaydi.

2. Natijada logistik korxonalarda debitorlik qarzlarni samarali boshqarish va pul mablag'larini qisqa muddatli moliyaviy aktivlarga investitsiyalash orqali aylanma mablag'lar aylanuvchanligi va rentabellik ko'rsatkichlarini oshirishda imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

3. Logistik korxonalarda aylanma mablag'larini tarkibiy optimallashtirish orqali ularga bo'lgan ehtiyojlarni minimallashtirish hisobiga korxonalarini moliyalashtirish manbalari tarkibida joriy kreditorlik qarzlari va qisqa muddatli majburiyatlarni so'ndirish imkoniyatlari mavjud. Bu, o'z navbatida, muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkoniyat mavjudligini tasdiqlaydi [12].

Bugungi kunda milliy transport logistika korxonalarini moliyalashtirishda 3 asosiy manba mavjud bo'lib, ushbu manbalari kombinatsiyasi hisobiga logistik xizmatlar uchun uzluksiz barqaror moliyalashtirish manbalari yaratiladi. Ikkinchidan, moliyaviy resurslarni ichki va tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirishning keng spektrdagi instrumentlari qarz mablag'lari qiymatini boshqarish orqali moliyaviy xarajatlarni minimallashtirishga imkoniyat yaratadi. Bu tabiiy ravishda moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali kapital qiymatini minimallashtirishga imkoniyat yaratib, foyda massasini oshirishga kerakli shart-sharoit yaratadi.



4-rasm. Milliy transport-logistika tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish strategiyasi

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

Xususan, biz tomondan milliy transport-logistika tizimini moliyalashtirishni boshqarish strategiyasini yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda 3 asosiy turkumga ajratish mumkin: 1. Ichki moliyaviy salohiyat samarali realizatsiya qilish orqali xususiy kapital (X_1) hajmini oshirish va aylanma ishlab chiqarish fondlarini moliyalashtirish. 2. Moliyaviy bozorlardan turli moliyaviy instrumentlar hisobiga moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali moliyalashtirish (X_2). 3. Qayta taqsimlash natijasida jalb qilinadigan va maxsus maqsadli jamg'armalar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar (X_3). Ushbu manba, birinchi navbatda, logistik korxonalar uchun texnologik rivojlanish va ular operatsion faoliyatini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan maxsus jamg'armani nazarda tutadi.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, milliy transport logistika korxonalarini samarali moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'arasi tashkil qilinib, ushbu sohani davlat tomonidan moliyalashtirishda (X_3) markaziy ahamiyat kasb etuvchi maqsadli jamg'arma hisoblanadi. Ushbu jamg'arma, asosan, 9 ta man-

balar hisobiga shakllantirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, 5 ta yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirishga sarflanishi ko'zda tutilgan[12]. Ushbu jamg'arma, asosan, transport logistika tizimini modernizatsiyalash, infratuzilmani davlat tomonidan moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadli jamg'arma hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu jamg'armaning faoliyat spektri sohada faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy rag'batlantirishdagi imkoniyatlari nisbatan cheklanib qolgan.

Xususan, sohada faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari operatsion faoliyatini (A_c) moliyalashtirish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ushbu faoliyat bo'yicha funksional vazifani bajarmayotir. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-sonli qaroriga asosan milliy transport-logistika korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator fiskal va monetar imtiyozlarni davom ettirishda yuqorida tilga olingan jamg'armaga bir qator vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq. Xususan, logistika

korxonalar aylanma mablag'larini moliyalashtirishda moliyaviy bozorlardagi mavjud kredit resurslarini (2) jalb qilishdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi qoshida "Kafolat fondi" va "Kredit foizlari kompensatsiya" fondlarini (5) shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu jamg'arma hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalar, asosan, transport logistika infratuzilmasini modernizatsiyalashga (A_{tr}) yo'naltirilib (3), ushbu amaldagi xarajatlardan sohani modernizatsiyalashga xizmat qilmoqda. "Kafolat fondi" va "Kredit foizlari kompensatsiya" fondlarini shakllantirish sohada faoliyat yuritayotgan va ayni paytda aylanma mablag'larni barqaror korporativ manbalar hisobiga moliyalashtirish uchun shart-sharoit yaratishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

1. Tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish natijasida logistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini intensiv va samarali moliyalashtirish, avvalo, ulardagi mavjud ichki moliyaviy salohiyatdan optimal foydalanish, moliyaviy resurslarni aktivlarga investitsiyalash siyosatida ishbilarmon faollik va rentabellik darajasini ta'minlash bo'yicha muvozanatlashgan moliyaviy barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini ta'minlashga bog'liq.

2. Tahillar natijasida xulosa qilindiki, logistik korxonalarda ishbilarmon faollik darajasi va xarajatlarni boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv mavjud bo'lmayotir. Bu, o'z navbatida, moliyaviy natijalarning shakllanishi va uning taqsimlanishi tizimida sof moliyaviy natijalar manbalarining keskin davriy o'zgarishlar tendensiyasi kuzatilishiga ta'sir etmoqda.

3. Logistik korxonalar xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy faoliyati yuqori energiya va material sig'imi hisobiga ta'minlanishi tannarx xarajatlarning yuqori darajasi ta'minlanishiga ta'sir etmoqda.

Bu, o'z navbatida, tannarxning har bir elementini samarali boshqarish tizimi orqali ularni qisqartirish va natijada asosiy faoliyat yalpi foyda nominal qiymatini oshirish orqali rentabellik ko'rsatkichlarini barqarorlashtirishda katta imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

4. Tashqi bozorlardagi konyunkturaning keskin o'zgarishi, energiya resurslari narxlarining tebranishi logistik firmalar moliyaviy barqaror rivojlanishining

nishining xaotik tarzda kuzatilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, ishbilarmon faollik va moliyaviy natijalar samaradorligining keskin o'zgarish tahlikalarini vujudga keltirmoqda.

5. Tashqi va ichki tahlikalar sharoitida logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini samarali boshqarish "risk-menejment" zamonaviy uslubiyotidan foydalanishni, ushbu uslubiyot orqali muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, rentabellik ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish hamda ular ishbilarmon faollik ko'rsatkichlarini mo'tadillashtirish, ichki moliyaviy salohiyatni to'liq ishga solish orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlarini to'g'ri baholashga shart-sharoit yaratadi.

6. Xorijiy mamlakatlar ilgor tajribalari tasdiqlashicha, moliyaviy bozorlar va ulardagi moliyaviy instrumentlarning keng spektrdagi rivojlanishi, barcha tadbirkorlik subyektlari qatori logistik xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy va aylanma fondlarini moliyalashtirishning zamonaviy usullari muqobil variantlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

7. Milliy iqtisodiyotda logistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar moliyaviy resurslari shakllanish manbalari bo'yicha tanlanma kuzatuv va empirik tadqiqotlar tasdiqlaydiki, ishbilarmon faollik ko'rsatkichining ortib borish tendensiyasida aktivlarga investitsiyalangan kapital tarkibida qarz kapitali ulushining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu, o'z navbatida, aktivlarga avanslangan kapital, asosan, ichki moliyaviy salohiyatdan foydalanish hisobiga o'z va unga tenglashtirilgan moliyaviy resurslarga nisbatan tashqi moliyalashtirish manbalarini yuqori darajada jalb qilish hisobiga shakllantirilayotganligidan dalolat beradi.

8. Xususiy kapital tarkibida taqsimlanmagan foydaning yuqori o'sish dinamikasi xo'jalik faoliyati moliyaviy samaradorligining ortib borganligidan dalolat berib, ichki zaxira fondlarining to'planish darajasiga ham ijobiy ta'sir etgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda moliyaviy resurslarni keng jalb qilishga imkoniyat beruvchi investitsion jozibadorlikning mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehar M.A. *Impacts of the Patterns of Financing on Logistic Infrastructure in CAREC Member Countries.* // *Unlocking Private Investment in Sustainable Infrastructure in Asia.* – Routledge, 2022. C. 127-152.
2. Baumol WJ: *The Transactions Demand for Cash: An Inventory Theoretic Approach.* Q. J. Econ. 1952; 66(4): 545.
3. Grant, David B., Chee Yew Wong, and Alexander Trautrim. *Sustainable logistics and supply chain management: principles and practices for sustainable operations and management.* Kogan Page Publishers, 2017.
4. Tan, Keah Choon. "To cite this document: Keah Choon Tan, Steven B. Lyman, Joel D. Wisner, (2002) *Supply chain management: a strategic perspective*", *International Journal of Operations & Production Management*, Vol. 22 Issue: 6, pp. 614-631. *perspective* 22.6: 614-631.
5. Fu, Xiaowen, Adolf KY Ng va Yui-Yip Lau. "Dengiz qaroqchiligining global iqtisodiy rivojlanishga ta'siri: Somali ishi". *Dengiz siyosati va boshqaruvi.* 37.7 (2010): 677-697.

6. Hofmann, Erik. "Ta'minot zanjiri moliyasi: ba'zi konseptual tushunchalar". *Beiträge Zu Beschaffung Und Logistik* 16 (2005): 203-214.
7. García-Teruel, Pedro Juan, and Pedro Martínez-Solano. "Effects of working capital management on SME profitability". // *International Journal of managerial finance* 3.2 (2007): 164-177.
8. Natsyraeva Y.A. "Overview of existing approaches to business activity of enterprise assessment". *Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета* 3 (2011): 85-87.
9. Temtime, Zelealem Tadesse. *Relationship between working capital management, policies, and profitability of small manufacturing firms*. Diss. Walden University, 2016.
10. Махмудов Самариддин. Иқтисодий тизимда логистика соҳасининг ролини баҳолаш. // *Economics and education* 23.4 (2022): 296-307.
11. Махмудов Самариддин. Логистика тизимини молиялаштириш орқали экспорт амалиётларини ARDL ва ARIMA моделлари асосида эконометрик моделлаштириш ва прогнозлаштириш. // *International Journal of Economics and Innovative Technologies* 11.2 (2023): 243-261.
12. Махмудов С. (2023). Эконометрическое моделирование и прогнозирование экспортных операций через финансирование логистической системы на основе моделей ARDL и ARIMA. *Economics and Innovative Technologies*, 11(2), 243-261. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i25
13. Qarang: "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-maydagi 429-sonli qaroriga 1-ilova. 2-bob. // <https://lex.uz/docs/4352364>



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА СОЛИҚ ҚАРЗИНИ УНДИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Бабамуратов Жаҳонгир Рустамович -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
мустақил изланувчиси

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a20

Аннотация. Ушбу мақолада солиқларни ундириш механизмини такомиллаштириш, солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш ва таълимни яхшилаш, солиқ тизими ва тартибларини соддалаштириш, солиқ тўловчилар ва солиқ органлари ўртасида самарали алоқа каналларини ривожлантириш, солиқларни ундириш механизмларини такомиллаштириш, бундан ташқари, адолатга бўлган ишонч ва идрокни шакллантириш ва самарали мажбурлов чораларини қўллаш ҳам мувофиқликни ошириши, муносабатларни ривожлантириш тенденцияларининг назарий ва амалий жиҳатлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: солиқ қарзи, дебиторлар, дебитор қарз, солиқларни ундириш, солиқ ҳисоботи, давлат божси, кредитор, суд ҳужжатлари, суд ижрочилари.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ВЗЫСКАНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Бабамуратов Джаҳонгир Рустамович -
Соискатель Ташкентского государственного
экономического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается совершенствование механизма сбора налогов, улучшение обслуживания и просвещения налогоплательщиков, упрощение налоговой системы и процедур, развитие эффективных каналов коммуникации между налогоплательщиками и налоговыми органами, совершенствование механизмов сбора налогов. Кроме того, формирование доверия и восприятия правосудия и применение эффективных принудительных мер также повышают соответствие теоретическим и практическим аспектам, были выделены тенденции в развитии взаимоотношений.

Ключевые слова: налоговый долг, дебиторская задолженность, взыскание налогов, налоговая отчетность, государственная пошлина, кредитор, судебные документы, судебные приставы.

WAYS TO IMPROVE THE MECHANISM OF COLLECTION OF TAX DEBT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Babamuratov Jakhongir Rustamovich -
Tashkent State University of Economics
Independent seeker

Annotation. In this article, improving the mechanism of tax collection, improving the service and education of taxpayers, simplifying the tax system and procedures, developing effective communication channels between taxpayers and tax authorities, improving the mechanisms of tax collection. In addition, the formation of trust and perception in justice and the use of effective coercive measures also increase compliance theoretical and practical aspects have been highlighted the trends in the development of relationships.

Keywords: tax debt, receivables, receivables, tax collection, tax reporting, state duty, creditor, court documents, bailiffs.